



## Firibgarlardan himoya qilish uchun maslahatlar va tavsiyalar

Texnologik rivojlanish va raqamlashtirish davrida tobora ko'payib borayotgan firibgarlar aldov va hiyla-nayrang orqali foyda olish yo'llarini topishga harakat qilmoqda. Biz har bir mijozga firibgarlarning hiyla-nayranglariga ishonib, aldanib qolmasligi uchun quyidagi tavsiyalarni taqdim etadi:

- Hech qachon SMS-xabar orqali kelgan kodni hech kimga oshkor etmang. Yodingizda bo'lsin, Bank xodimlari hech qachon SMS-xabar orqali kelgan kodni so'ramaydilar.
- Hech qachon karta bo'yicha siz amalga oshirmagan o'tkazmalarni tasdiqlamang.
- Noma'lum raqamlardan qo'ng'iroq qilishganida javob bermang, hattoki Bank xodimi deb o'zini tanishtirganida ham, telefon orqali shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor etmang. Bank barcha qo'ng'iroqlarni quyidagi Baxt-markazi telefon raqami orqali amalga oshiradi – **1150**
- Firibgarlar soxta tanlovlarda ishtirok etish uchun pul mablag'laringizni o'tkazishingizni yoki o'tkazmani tasdiqlashingizni so'rganlarida ularga aldanib qolmang. Yodingizda bo'lsin, TBC aksiyalari faqat rasmiy kanallarda o'tkaziladi. Ularda ishtirok etish uchun sizdan pul mablag'laringizni o'tkazish yoki o'tkazmani tasdiqlash talab etilmaydi.
- Agar siz onlayn xaridni amalga oshirayotgan bo'lsangiz va sotuvchi sizdan shaxsiy ma'lumotlaringizni so'rab, begona veb-sayt orqali to'lashni taklif etayotgan bo'lsa, umuman hech qanday shaklni to'ldirmang. Sizga noma'lum bo'lgan tizimlar orqali o'z xaridlaringizni amalga oshirmang. Havolalarni ochmang va hech kimga shaxsiy ma'lumotlaringizni bermang.

## Firibgarning 3 ta belgisi

1. Sizga noma'lum bo'lgan yoki yashirin raqamdan qo'ng'iroq qiladi;
2. Sizning kartangizdan noqonuniy yo'llar bilan foydalanmoqchi deb sizga noma'lum raqamdan SMS-xabar yuboriladi;
3. Agar xalqaro bank kartasiga ega bo'lsangiz, karta raqamini, uning amal qilish muddatini va uning orqa tomonidagi uchta raqamni ma'lum qilishingizni so'raydi.

Agar sizga bu kabi xabar yuborilgan bo'lsa yoki qo'ng'iroq qilishsa, demak siz firibgar bilan muloqotdasiz va u sizning ma'lumotlaringizni qo'lga kiritib, pul mablag'laringizni o'g'irlamoqchi.

- Firibgarlikning eng keng tarqalgan sxemalaridan biri onlayn savdo platformasida mavjud.
- Firibgarlar savdo platformasida mahsulotlarini savdoga qo'ygan shaxslarga qo'ng'iroq qilib, ulardan bank karta raqamini, amal qilish muddatini so'raydi, so'ngra ushbu shaxsga SMS-xabar orqali yuborilgan tasdiq kodini berishni so'raydi.
- Agar uchinchi shaxsga karta ma'lumotlaringizni bermoqchi bo'lsangiz, kartangiz fotosuratini yubormang. Firibgarlar bundan foydalanib, kartangizda tasvirlangan 16 ta raqam hamda kartaning amal qilish muddatidan jinoiy maqsadlarni ko'zlab foydalanishi mumkin.
- Boshqa ijtimoiy tarmoqlarda bank xizmatlarini taklif etayotgan firibgarlarga aldanib qolmang. Yodingizda tuting, barcha TBC bank xizmatlari faqat TBC UZ ilovasi orqali taqdim etiladi.
- Uchinchi shaxsning taklif va so'zlarini inobatga olib, kredit olish uchun ariza bermang. Sizning nomingizga rasmiylashtirilgan barcha kreditlar sizga ularni to'lash majburiyatlarini yuklaydi.
- Agar bank kartangizdan firibgarlik yo'li bilan pul mablag'laringizni yechib olinganligi bo'yicha sizda shubha uyg'ongan bo'lsa, TBC UZ ilovasida kartangizni bloklashni va TBC Bankning Baxt Markazi telefon raqamiga qo'ng'iroq qilishingizni tavsiya etamiz – **1150**.
- Agar huquqlaringiz buzilishiga olib keluvchi shubhali holatlar sodir bo'layotganligini sezsangiz, "Noqonuniy harakatlar haqida xabar berish Siyosati"ga ko'ra quyidagi aloqa kanallari orqali anonim shaklda murojaat qilishingiz mumkin:  
[incident\\_compliance@tbcbank.uz](mailto:incident_compliance@tbcbank.uz) yoki Ishonch Telefon raqamiga qo'ng'iroq qiling:  
**78 888 27 27**.